XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-16-158-12-0-K/25 Xorazm viloyati

Hazorasp, Shovot, Urganch tumanlari hududida barpo etilayotgan “Yangi O‘zbekiston” massivlarining bosh reja loyiha hujjatlarini tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksining 44, 45, 46-moddalariga asosan Urganch tumani Qumravot mahallasida, Shovot tumani Oq oltin mahallasida, Hazorasp tumani Ziyolilar mahallasida hamda Urganch tumani Oq ariklar mahallasida “Al-Xorazmiy” majmuasi hamda “Yangi O‘zbekiston” massivlari barpo etilmoqda.

“O‘zshaharsozlik LITI” bosh loyiha instituti davlat muassasasi tomonidan ushbu massivlarning bosh reja loyiha hujjatlari ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

Qaror qiladi:

1. Viloyat hokimligining 2025-yil 9-dekabrdagi 03-5-09/13243-sonli xati, viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi huzuridagi hududiy Arxitektura-shaharsozlik kengashining 2025-yil 15-noyabrdagi B-186/2-sonli bayoni va viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasining 2025-yil 15-noyabrdagi B-1026-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Hazorasp tumani Ziyolilar mahallasi hududidan barpo etilayotgan “Yangi O‘zbekiston” massivining bosh reja loyihasi 1-ilovaga;

Shovot tumani Oq oltin mahallasi hududida barpo etilayotgan “Yangi O‘zbekiston” massivining bosh reja loyihasi 2-ilovaga;

Urganch tumani Qumravot mahallasi hududida barpo etilayotgan “Yangi O‘zbekiston” massivining bosh reja loyihasi 3-ilovaga;

Urganch tumani Oq ariklar mahallasi hududida barpo etilayotgan “Al-Xorazmiy” majmuasining bosh reja loyihasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Hazorasp, Shovot va Urganch tumanlari hokimliklari viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (M.Kalandarov) bilan birgalikda o‘z vakolatlari doirasida:

tegishli mutasaddi tashkilot va idoralarni jalb etgan holda bosh reja loyihalari ishlab chiqilishi bilan bir vaqtda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqib, tasdiqlash;

massivlar hududi yerlaridan maqsadsiz foydalanishga va noqonuniy qurilishlarni amalga oshirishga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan qat’iy nazorat o‘rnatish yo‘li bilan ulardan samarali foydalanish;

energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali muhandislik kommunikatsiya tuzilmasini (suv, elektr, gaz, issiqlik ta’minoti, telekommunikatsiya obyektlari, kanalizatsiya, irrigatsiya) qurish va rekonstruksiya qilish yo‘li bilan modernizatsiya qilish;

ko‘p qavatli uy-joylar, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport, madaniyat, san’at va dam olish obektlarini oqilona joylashtirish hamda bosh rejaga muvofiq, infratuzilmani rivojlantirish chorasini ko‘rsin.

4. Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi (Sh.Otayev) hududlarning tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlari asosida qurilish obyektlari joylashtirilishini nazoratga olsin.

5. “O‘zshaharsozlik LITI” bosh loyiha instituti davlat muassasasi tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlarini qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirsin.

6. Ushbu qaror “Xorazm haqiqati” gazetasida rasman e’lon qilsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi K.Igambergenov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **RADJABOV ALTIBAY BEGJANOVICH**


Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-158-12-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Hazorasp tumani Ziyolilar mahallasi hududidan barpo etilayotgan “Yangi O‘zbekiston” massivining bosh reja loyihasi



Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-158-12-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Shovot tumani Oq oltin mahallasi hududida barpo etilayotgan “Yangi O‘zbekiston” massivining bosh reja loyihasi



Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-158-12-0-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Urganch tumani Qumravot mahallasi hududida barpo etilayotgan “Yangi O‘zbekiston” massivining bosh reja loyihasi



Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-158-12-0-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Urganch tumani Oq ariklar mahallasi hududida barpo etilayotgan “Al-Xorazmiy” majmuasining bosh reja loyihasi

